

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
M.T.O‘RAZBOEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK
MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

SHERMUXAMEDOV YUSUFBEK ABDULAZIZ O‘G‘LI

**BOG‘DORCHILIK VA UZUMCHILIK UCHUN MAHALLIY YUQORI
KLIRENSLI TRAKTORNING YURITMALAR TIZIMI
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**
**Sontent of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Shermuxamedov Yusufbek Abdulaziz o‘g‘li Bog‘dorchilik va uzumchilik uchun mahalliy yuqori klirensli traktorning yuritmalar tizimi parametrlarini asoslash.....	3
Шермухамедов Юсуфбек Абдулазиз угли Обоснование параметров систем приводов отечественного высококлиренсного трактора для садоводство и виноградарства.....	21
Shermukhamedov Yusufbek Abdulaziz ugli Substantiation of parameters of drive systems of a domestic high-clearance tractor for Horticulture and Viticulture.....	39
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	44

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
M.T.O‘RAZBOEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK
MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

SHERMUXAMEDOV YUSUFBEK ABDULAZIZ O‘G‘LI

**BOG‘DORChILIK VA UZUMCHILIK UChUN MAHALLIY YUQORI
KLIRENSLI TRAKTORNING YURITMALAR TIZIMI
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PHD/T4963 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universiteti va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'razboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.andmiedu.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Astanov Bekzod Jangiboevich,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Xalmuxamedov Aziz Suratovich
texnika fanlar doktori, dotsent

Axmedov Doniyor Anvarjonovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi **Toshkent davlat transport universiteti** huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi **DSc. 15/31.08.2022.T.73.03** raqamli Ilmiy Kengashning 2024 yil "05" dekabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100208, Toshkent sh, Temirchi ko'chasi, 57-uy, Tel.: (99871)294-77-38).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent sh, Odilxo'jaev ko'chasi, 1-uy, Tel.: (99871) 299-05-66).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « _____ » _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil « _____ » _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Riskulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

K.Z.Ziyaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, falsafa
doktori (PhD), dotsent

A.A.Muxitdinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bog'dorchilik va uzumchilikda intensiv texnologiyalarni joriy etish masalalariga yanada katta ahamiyat berilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki uzumzorlardagi operatsiyalarning 90%ni mexanizatsiyalashgan holda amalga oshirilishi mumkin, bog'larda bu ko'rsatkich taxminan 80%ni tashkil qilmoqda. Hozirda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bog'bonlar va uzumchilarning vazifasi mavjud traktorni ish qurollari bilan to'liq hajmda yuklash, undan maksimal darajada va mavjud bo'lgan agregatlar bilan foydalanishga qaratilgan masalalar yetakchi o'rinni egallagan. Bu borada, jumladan qatorlarga ishlov berish (yumshatish, tuproqqa ishlov berish, mulchalash va boshqalar), purkash, tok va novdalarga ishlov berish (chekankalash, kesish va boshqalar), gullarni butash, to'g'ridan-to'g'ri yig'ish turli xil osma texnikalar yordamida amalga oshirilishiga va traktorning zarur bo'lgan quvvatga ega bo'lishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda rivojlangan mamlakatlarning traktor ishlab chiqaruvchi yetakchi kompaniyalari bog'dorchilik va uzumchilik traktorlari turlarini ko'paytirish, xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ushbu yo'nalishda jumladan, "Deutz-Fahr" (Germaniya) kompaniyasi traktor balandligini sozlashga, AGCO, New Holland (AQSh) kompaniyalari ham bog'lar uchun, ham uzumzorlar uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan traktorlar, shuningdek, gusenitsali traktorlar ishlab chiqishga, MTZ (Belarus Respublikasi) tuproqqa bosimni kamaytirish uchun traktorning og'irligini kamaytirishga, Goldoni BCS va Landini (Italiya) tormozlarni o'chirish va sharnirli (buklanadigan) ramalar tizimidan foydalanish orqali burilish radiusini minimallashtirishga, Sonalika Group (Hindiston) kompaniyasi dizaynga, yuk ko'tarish qobiliyatiga, gidravlik kuchaytirgichli rul boshqarmasiga, minimal radiusli burilishga bag'ishlangan tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, kichik maydonda burulishni ta'minlash, turli xildagi osma qurilmalardan samarali foydalanishni ta'minlash dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda oxirgi yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotish sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, qishloq xo'jaligi sohasiga investitsiyalarni jalb etish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnika bilan ta'minlash bo'yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "... eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSH dollariga oshirish."¹ bo'yicha vazifalari alohida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarish ko'p jihatdan texnik ta'minotga, yuqori samarali mashinalarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan

ishlab chiqish va joriy etishga, texnikalardan foydalanish darajasiga, mexanizatsiyalashgan ishlar sifatini oshirishga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyuldagi PQ-3117-sonli “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sohasida ilmiy-texnika bazani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 23-noyabrdagi PQ-20-sonli “Mevalar va sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 2-maydagi 83-sonli “Toshkent qishloq xo‘jaligi texnikasi zavodi” aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish va faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Traktorlarning yuritmalar tizimidagi ish jarayonlarni statik va dinamik hisobi bilan T.M.Bashta, D.N.Popov, L.M. Tarko, Ye.M. Galdin, D.V. Nikitin, N.F. Metlyuk, A.D. Altshul, V.K. Sveshnikov, A.L. Zuykov, B.P. Borisov, M.Ye. Goydo, M.I. Jilevich, S.V. Kobyzhev, Z.V. Lovkis, V.I. Mrochek, V.V. Guskov, D.A. Chudakov, V.Ya. Anilovich, I.B. Barskiy, V.A. Bondar, G.L. Kalbus, K.Ya. Nekrashevich, A.B. Lure, S.V. Molokanov, V.M. Dmitriev, V.B.Popov, A.V. Solamadze, R.Morselli, Janis Laceklis-Bertmanis, S.D. Kim, G.V. Prasanna Kumar, V. Matikainen, J. Čupera, J. Kosiba, P. Porteš, Z. Tkáč, Javad Tarighi, G.S. Manes, E. Seyedabadi, F. Kheiralla, L. Negut va boshqalar tadqiqotlar olib borgan.

O‘zbekistonda traktorlar yuritmalar tizimini O.V. Lebedev, A.A. Shermuxamedov, A.A. Axmetov, T.I. Askarxodjaev, Sh.P.Alimuxamedov, K.A. Sharipov, G.K. Annakulova, B.J.Astanov, Sh.A.Axmedov va boshqalar o‘rgangan.

Hozirgi vaqtda traktorlar va ularning ayrim uzatmalarining konstruktiv, statik va dinamik parametrlarini o‘rganish va hisoblash uchun turli xil analitik bog‘lanishlar, modellar va usullar ishlab chiqilgan.

Traktor yuritmalar tizimi parametrlarini hisoblashning mavjud usullarini tahlil qilish, ularning ayrim qismlari uchun matematik modellar ishlab chiqilgan va yechilgan, ammo bog‘dorchilik traktorlari uchun yuritmalar tizimi parametrlarini aniqlash uchun bog‘dorchilik traktorlari va ularning yuritmalar tizimiga qo‘yiladigan maxsus talablar bo‘yicha kompyuterdan foydalangan holda kompleks hisoblash usuli ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya

tadqiqoti MV-Atex.-2018-242 – “Intensiv bog‘dorchilik va uzumchilik ishlari uchun mo‘ljallangan portal tipidagi yuqori klirensli traktorning turg‘unlik bo‘yicha konstruktiv parametrlarini ishlab chiqish” (2018-2020 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqodning maqsadi bog‘dorchilik va uzumchilik uchun mahalliy yuqori klirensli traktorning yuritmalar tizimidagi ish jarayonlarni kompleks hisob usulini ishlab chiqish va parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bog‘dorchilik va uzumchilik traktorlariga qo‘yiladigan talablar, ularning yuritmalar tizimi va ularni hisoblash usullarini tahlil qilish;

bog‘dorchilik va uzumchilik traktorlarining yuritmalar tizimini statik hisoblash, sirpanish va ag‘darish mezonini asosida uning barqarorligini baholash;

bog‘dorchilik va uzumchilik traktorlarining yuritmalar tizimini dinamik hisoblash;

bog‘dorchilik va uzumchilik traktorlarining yuritmalar tizimini eksperimental o‘rganish;

nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarini qiyosiy tahlil qilish;

tadqiqot natijalarini joriy qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bog‘dorchilik va uzumchilik uchun mahalliy yuqori klirensli traktorning yuritmalar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini bog‘dorchilik va uzumchilik uchun mahalliy yuqori klirensli traktori yuritmalar tizimining statik, kinematik va dinamik ko‘rsatkichlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Bog‘dorchilik va uzumchilikka mo‘ljallangan yuqori klirensli traktorning yuritmalar tizimi parametrlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, gidromexanika, mexanizmlar va mashinalar nazariyalari, g‘ildirakli transport vositalarining harakat nazariyasining asosiy qoidalari va usullaridan, tajribalarni rejalashtirish va matematik statistika usullaridan, ekspluatatsion xususiyatlarni aniqlashning me‘yoriy hujjatlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zgaruvchan baza, koleya va klirensli bog‘dorchilik va uzumchilik traktorining turli tezlik va tayanch yuza qiyaliklardagi ag‘darilish va sirpanishga qarshi chegaraviy burchak qiymatlari traktorning muvozanat tenglamalari asosida aniqlangan;

bog‘dorchilik va uzumchilik traktorining gidravlik rul mexanizmi va gidravlik osma mexanizmlari zvenolarining burchak, burchak tezligi va burchak tezlanishlarini analitik bog‘lanishlari yopiq vektorlar usulini qo‘llagan holda aniqlangan;

traktor burilishi jarayoniga rul mexanizmi, gidrohajmiy rul yuritmalarining ishlashi va yo‘l sharoitlarining kompleks ta‘sirini hisobga olgan holda uning parametrlarini aniqlashtirish imkonini beradigan bog‘dorchilik va uzumchilik traktorining gidravlik rul boshqarmasining modeli va sonli hisoblash metodikasi ishlab chiqilgan;

osma mexanizmi, gidravlik yuritmalarning ishlashi va yuk massasiga bog‘liq ravishda uning parametrlarini aniqlashtirish imkonini beradigan bog‘dorchilik va uzumchilik traktorining gidravlik osma tizimini modeli va sonli hisoblash metodikasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqilgan modellar, uslublar, algoritmlar va kompyuter dasturlari yordamida sonli modellashtirish asosida loyihalash bosqichida bog‘dorchilik va uzumchilik uchun yuqori klirensli traktorning yuritmalar tizimining samaradorligiga konstruktiv yechimlarning ta‘sirini baholash va ratsional parametrlarni aniqlash imkonini bergan;

tadqiqotlar asosida bog‘dorchilik va uzumchilik traktori yuritmalar tizimining kinematik va kuch tavsiflari, burilish, yuk ko‘tarish jarayonining dinamik tavsiflari aniqlandi;

taklif etilayotgan mezon, analitik bog‘lanish, model va sonli hisoblash metodikalari yordamida, loyihalash jarayonida bog‘dorchilik va uzumchilik traktorning statik va dinamik parametrlarini asoslash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va o‘lchash vositalaridan foydalangan holda o‘tkazilgani, bog‘dorchilik va uzumchilik traktorlarini yuritmalar tizimining konstruktiv, statik va dinamik parametrlarini nazariy mexanika, gidromexanika, mexanizmlar va mashinalar, g‘ildirakli transport vositalarining harakatlanish nazariyasi va matematik modellashtirishning nazariy qoidalari asosida amalga oshirilgani, tajribalar natijalariga matematik statistika uslublari bilan ishlov berilganligi, traktorning yuritmalar tizimini kinematik va dinamik hisoblashda kompyuter dasturlaridan foydalanilgani, olingan nazariy va eksperimental natijalarning o‘zaro mosligi, yetarliligi. tadqiqotlar, traktorda laboratoriya va dala sinovlari o‘tkazilib, amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan matematik modellar, analitik bog‘liqliklar va barcha o‘xshash traktorlarning yuritmalar tizimining parametrlarini asoslashda hisoblash usullaridan foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan traktor tajriba namunasini ishlab chiqishda foydalanish, loyihalash sifati va samaradorligini oshirish, tajriba-konstruktorlik ishlari va zavod sinovlari, mehnat va boshqa xarajatlarni kamaytirish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ishlarini bog‘dorchilik va uzumchilik uchun traktorlar yordamida bajarishda mehnat unumdorligini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bog‘dorchilik va uzumchilik uchun mahalliy yuqori klirensli traktorning yuritmalar tizimi parametrlarini asoslash bo‘yicha tadqiqotlar asosida:

o‘zgaruvchan baza, koleya va klirensli bog‘dorchilik va uzumchilik traktorining turli tezlik va tayanch yuza qiyaliklardagi ag‘darilish va sirpanishga qarshi chegaraviy burchak qiymatlari traktorning muvozanat tenglamalari asosida aniqlangan va «O‘zavtosanoat» AJda joriy etilgan («O‘zavtosanoat» AJning 2024 yil 14 avgustdagi 17/07-25-1253-son ma‘lumotnomasi). Natijada bog‘dorchilik

traktorining ag‘darilishi va sirpanishiga nisbatan maksimal tezlik va qiyalik qiymatlari belgilangan;

bog‘dorchilik traktorining gidravlik rul mexanizmi va gidravlik osma mexanizmlarining takomillashtirilgan kinematik sxemasi, zvenolarining analitik bog‘lanishlari orqali aniqlangan kinematik parametrlari «O‘zavtosanoat» AJda joriy etilgan («O‘zavtosanoat» AJning 2024 yil 14 avgustdagi 17/07-25-1253-son ma’lumotnomasi). Natijada bog‘dorchilik traktorining konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

bog‘dorchilik traktorining gidravlik osma tizimlaridagi ish jarayonini modeli va sonli hisoblash uslubi «O‘zavtosanoat» AJda joriy etilgan («O‘zavtosanoat» AJning 2024 yil 14 avgustdagi 17/07-25-1253-son ma’lumotnomasi). Natijada bog‘dorchilik traktori yuritmalar tizimining dinamik jarayonini o‘rganish va parametrlarini aniqlashtirish imkoniyati yaratilgan.

Bog‘dorchilik traktorining gidravlik rul boshqarmasi, gidravlik osma tizimlaridagi ish jarayonini modellashtirish orqali loyihalash-konstruktorlik ishlari va tajriba nusxasini ishlab chiqarishning samaradorligini 30% ga oshirishga erishilgan. Tadqiqot natijalarini joriy etishdan kutilayotgan yillik iqtisodiy samara, 50 ta traktor ishlab chiqarilganda, 1312500000 so‘mni tashkil etishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha 2 ta ixtiroga patent («Transport vositasining yuqori klirensli osma tizimi», IAP 06768; «Transport vositasining rul boshqarmasi gidrokuchaytirgichi», IAP 07207) olindi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi horijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Masalaning holati va tadqiqot vazifalar**” deb nomlangan birinchi bobida bog‘dorchilik va uzumchilik uchun mo‘ljallangan traktorlarning konstruksion xosligi va ularga qo‘yiladigan talablar, bugungi kunda mamlakatimizda va jahonda traktor yuritmalar tizimini modellashtirish bo‘yicha

olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari, yuqori klirensli qishloq xo'jaligi traktorlarining turg'unligi va xavfsizligini baholash mezonlari tahlili keltirilgan.

Yuqori klirensli traktorlarning mavjud konstruksiyalaridagi kamchiliklarni tahlil qilish asosida yuqori klirensli traktorlarga qo'yiladigan asosiy talablarni qondiradigan hamda baza va klirensni turli xil ish sharoitlari uchun pog'anasiz o'zgartirish imkonini beruvchi portal yuqori klirensli traktor konstruksiyasi taklif etildi.

Adabiyotlar tahlili shuningdek, mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarda ko'plab olimlar transport vositalarining yuritmalar tizimini hisoblash masalalari bilan shug'ullangani va shug'ullanib kelayotganini ko'rsatadi. Ular tomonidan yuritmalar tizimining elementlarini hisoblash modellari va usullari ishlab chiqilgan, yuritmalar tizimining ayrim xususiyatlarini o'rganishga imkon beradigan turli xil universal va maxsus dasturiy vositalar taklif qilingan, ammo bog'dorchilik va uzumchilik uchun mo'ljallangan traktorlarning konstruktiv xususiyatlari, yuritmalar tizimining mavjud modellari va ularning hisoblash usullarini takomillashtirish, turli omillarning ushbu yuritmalar qo'llaniladigan jarayonlarga kompleks ta'sirini hisobga olish (burilish jarayoni, yukni ko'tarish va tushirish jarayonlari, tormozlanish va boshqalar) zarurligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Bog'dorchilik va uzumchilik uchun mo'ljallangan yuqori klirensli traktorning yuritmalar tizimi parametrlarining statik hisobi”** deb nomlangan ikkinchi bobda, gidravlik rul boshqarmasi (GRB), gidravlik osma tizimi (GOT)ni statik hisobi va ixtisoslashtirilgan portal traktorining yonga sirpanish va ag'darilish mezonlariga muvofiq turg'unligini baholash amalga oshirilgan.

Taklif etilgan GRBning statik hisoblash usulidan foydalanib, hajmiy gidravlik yuritma va rul trapesiyasining parametrlari aniqlangan.

Rul trapesiyasining kinematikasini aniqlaydigan asosiy parametrlar - bu boshqariladigan g'ildiraklarning neytral holatida yon bo'g'inlarini og'ish burchagi φ , buriluvchi sapfalar shkvornyalari qlari orasidagi masofa M va yon bo'g'inlarning har birini uzunligi (r_1, r_2). Rul trapesiyasi sxemasi asosida bo'g'inlar o'lchamlari va minimal burilish radiusini ta'minlaydigan rul boshqarmasi g'ildiraklarining ichki va tashqi burilish burchaklari aniqlangan. Taklif etilayotgan traktor rul trapesiyasining parametrlari 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval

Oldi ko'prik va rul ko'prik va rul boshqarmasi parametrlari

B, m	L, m	M, m	$\varphi, grad$	l, m	r_1, r_2, m	$\alpha, grad$	$\beta, grad$	R_{min}, m
3,0	3,029	2,584	25,7	2,362	0,283	30	50	4,267
3,0	2,221	2,184	29,1	1,975	0,276	30	50	3,421

Statik hisob-kitobda, GOT ko'tarish mexanizmining shartli nuqtasiga (og'irlik markaziga) qo'yilgan yukga asoslanib, sharnirli bo'g'inlardagi kuchlanish va qarshilik momentlarini ketma-ket aniqlash orqali ko'tarish kuchi aniqlandi.

Traktor GOTi 1,8 tonnagacha (17,658 kN) yukni ko'tarish uchun mo'ljallangan. Yuk ko'tarish kuchiga qarab, gidravlik silindrning turi va soni tanlanadi.

Traktorning osma mexanizmida sharnirli bo'g'inlardagi kuchlanish va qarshilik momentlari qiymatidan kelib chiqib, kinematik sxemadagi og'irlik markaziga qo'yilgan 1,8 tonna yukni diametri 100 mm bo'lgan bitta gidravlik silindr bilan ko'tarish mumkinligi aniqlandi.

G'ildirakli traktorlarning turg'unligi ularning bo'ylama va ko'ndalang qiyaliklarda ag'darilmasdan yoki sirpanmasdan ishlash qobiliyati bilan tavsiflanadi. Tormozlangan traktorning ag'darilmasdan turib turishi mumkin bo'lgan eng katta balandlik burchagi maksimal statik balandlik burchagi α_{lim} deb ataladi. Maksimal statik nishab burchagi traktor bir tomonga ag'darilmasdan yoki pastga sirpanmasdan turishi mumkin bo'lgan maksimal qiyalik burchagidir.

2 va 3-jadvallarda loyihalananayotgan portal traktorining o'zgaruvchi baza, past va yuqori klirens xolatidagi cheklovchi statik burchagi - $\alpha'_{i\lim}$, traktor harakatlanayotganda eng katta balandlik $\alpha_{i\varphi}$ va qiyalik burchaklari $\alpha'_{i\varphi}$, shuningdek, yonaki turg'unlikning statik $\beta_{i\text{ст.}}$ va dinamik $\beta_{i\text{дин.}}$ burchaklarining chegaraviy qiymatlari keltirilgan.

2 -jadval

Past va yuqori klirensli portal traktorining bo'ylama turg'unligi parametrlari

L_i (cm)	a_i (cm)	b_i (cm)	h_i (cm)	B (cm)	$\alpha_{i\lim}$ (grad.)	$\alpha'_{i\lim}$ (grad.)	$\varphi_{i\text{сц}}$	$\alpha_{i\varphi}$ (grad.)	$\alpha'_{i\varphi}$ (grad.)
302,9	152,9	150	125,8	300	50	50,5	0,33 0,76	10,9 29,2	8,3 16,1
222,1	136,5	105,6	214,2	300	26	28,5	0,33 0,76	14,2 56	7,48 12,9


3 -jadval

Past va yuqori klirensli portal traktorining yonaka turg'unligi parametrlari

L_i (cm)	a_i (cm)	b_i (cm)	h_i (cm)	B (cm)	$\alpha_{i\lim}$, (grad)	$\varphi_{\text{сц}}$	$\beta_{i\text{ст.}}$, (grad)	$\beta_{i\text{дин.}}$, (grad)
302,9	152,9	150	125,8	300	50	0,33 0,76	50	25
222,1	136,5	105,6	214,2	300	26	0,33 0,76	35	17,5

Dissertatsiyaning **“Bog'dorchilik va uzumchilik uchun mo'ljallangan yuqori klirenli traktorning yuritmalar tizimi parametrlarini dinamik hisobi”** deb nomlangan uchinchi bobida rul trapesiyasi osma mexanizmning kinematik tavsiflari, matematik modellari va portal yuqori klirenli traktorning GRB va GOT dinamik hisoblash usullari, traktorning burilish jarayonini hisoblash keltirilgan.

Yopiq vektorlar usuliga asoslanib, gidravlik silindr porsheniga suyuqlik bosimi ta'sirida uzayadigan yoki qisqaradigan l_2+l_{20} -bo'g'inning o'zgarishiga qarab (1-rasm) burchaklar, burchak tezliklari va burchak tezlanishlari o'zgarishining analitik bog'lanishlari olingan.



1-rasm. GRB rul trapesiyasining kinematik sxemasi.

$$\varphi_2 = \varphi_1 - \arccos\left(\frac{\ell_2^2 + \ell_1^2 - \ell_3^2}{2\ell_1 \cdot \ell_2}\right), \quad \varphi_3 = \varphi_1 - \arccos\left(\frac{\ell_2^2 - \ell_1^2 - \ell_3^2}{2\ell_1 \cdot \ell_3}\right), \quad (1)$$

$$\omega_2 = \frac{\dot{l}_2}{l_2} \operatorname{ctg}(\varphi_2 - \varphi_3), \quad \omega_3 = \frac{\dot{l}_2}{l_3 \sin(\varphi_2 - \varphi_3)}, \quad (2)$$

$$\begin{cases} \varepsilon_2 = \left(\frac{\ddot{l}_2}{l_2} - \omega_2^2\right) \operatorname{ctg}(\varphi_2 - \varphi_3) - \frac{2\dot{l}_2}{l_2} \omega_2 + \frac{l_3 \omega_3^2}{l_2 \sin(\varphi_2 - \varphi_3)}, \\ \varepsilon_3 = \frac{l_2 \omega_2^2}{l_3 \sin(\varphi_3 - \varphi_2)} - \frac{\ddot{l}_2}{l_3 \sin(\varphi_3 - \varphi_2)} - \omega_3^2 \operatorname{ctg}(\varphi_3 - \varphi_2), \end{cases} \quad (3)$$

$$\varphi_{5,1,2} = k\pi + \operatorname{arctg}\left(\frac{-f_2 \pm \sqrt{f_2^2 - f_1 f_3}}{f_1}\right), \quad \varphi_{6,1,2} = k\pi + \operatorname{arctg}\left(\frac{-f_2 \pm \sqrt{f_2^2 - f_1 f_3}}{f_1}\right), \quad (4)$$


bunda

$$\begin{aligned} f_1 &= 4l_6^2 l_4^2 \sin^2 \varphi_4 - (l_7^2 + l_6^2 + l_4^2 - l_5^2 + 2l_7 l_4 \cos \varphi_4)^2, \quad f_2 = 4l_6^2 l_4 \sin \varphi_4 (l_7 + l_4 \cos \varphi_4), \\ f_3 &= 4l_6^2 (l_7 + l_4 \cos \varphi_4)^2 - (l_7^2 + l_6^2 + l_4^2 - l_5^2 + 2l_7 l_4 \cos \varphi_4)^2, \\ \omega_5 &= -\frac{l_4 \sin(\varphi_6 - \varphi_4)}{l_5 \sin(\varphi_6 - \varphi_5)} \omega_4, \quad \omega_6 = \frac{l_4 \sin(\varphi_5 - \varphi_4)}{l_6 \sin(\varphi_5 - \varphi_6)} \omega_4, \end{aligned} \quad (5)$$

$$\begin{cases} \varepsilon_5 = \frac{l_6 \omega_6^2}{l_5 \sin(\varphi_5 - \varphi_6)} - \frac{l_4 \omega_4^2 \cos(\varphi_4 - \varphi_6)}{l_5 \sin(\varphi_5 - \varphi_6)} - \frac{l_4 \varepsilon_4 \sin(\varphi_4 - \varphi_6)}{l_5 \sin(\varphi_5 - \varphi_6)} - \omega_4^2 \operatorname{ctg}(\varphi_4 - \varphi_6), \\ \varepsilon_6 = \frac{l_5 \omega_5^2}{l_6 \sin(\varphi_6 - \varphi_5)} + \frac{l_4 \omega_4^2 \cos(\varphi_4 - \varphi_5)}{l_6 \sin(\varphi_6 - \varphi_5)} + \frac{l_4 \varepsilon_4 \sin(\varphi_4 - \varphi_5)}{l_6 \sin(\varphi_6 - \varphi_5)} - \omega_6^2 \operatorname{ctg}(\varphi_6 - \varphi_5). \end{cases} \quad (6)$$

GRB traktorning gidravlik yuritmasi bilan ulangan quvvat silindri orqali boshqariladi.

Muayyan bo‘g‘inga kuchlarni keltirish usulidan foydalanib, gidravlik silindr porsheni harakati tenglamasini tuzamiz. Bunda, keltirish bo‘g‘ini sifatida gidravlik silindr shtokini tanlaymiz (2-rasm), ya’ni. $l_2 = l_2(t)$ bo‘g‘in. Bu holda, gidravlik silindrning dinamikasi quyidagi differensial tenglamalar tizimi bilan yoritiladi.



2-rasm. Gidravlik yuritmaning hisob sxemasi.

$$\left\{ \begin{array}{l} \frac{d(m_{np} v_2^2 / 2 + j_{np} \omega_2^2 / 2)}{dl_2} = P_d - k_v v_2 - P_{tr} \text{sign } v_2 - P_c \\ \frac{d p_1}{dt} = \frac{E_c (Q_1 - v_2 F_1)}{V_{01} + l_2 F_1} \\ \frac{d p_2}{dt} = \frac{E_c (v_2 F_2 - Q_2)}{V_{02} + (l_{max} - l_2) F_2} \end{array} \right. \quad (7)$$

bunda

$$m_{np} = \sum_{i=2}^n m_i (v_i / v_2)^2 + j_i (\omega_i / v_2)^2, \quad j_{np} = \sum_{i=2}^n m_i (v_i / \omega_2)^2 + j_i (\omega_i / \omega_2)^2, \quad P_d = p_1 F_1 - p_2 F_2,$$

$$P_c = \sum_{i=2}^n P_i v_i \cos \varphi_i / v_2 + M_i \omega_i / v_2,$$

m_{pr}, j_{pr} - gidrosilindr shtokiga keltirilgan harakatlanuvchi qismlarning massalari va inersiya momentlari; l_2, v_2, ω_2 - gidrosilindr shtokining ko'chishi, tezligi va burchak tezligi; k_v - qovushqoq ishqalanish koeffitsienti; R_{tr} - quruq ishqalanish koeffitsienti; R_d - gidrosilindr porshenini harakatlantiruvchi kuch; R_s - gidrosilindr shtokining keltirilgan qarshilik kuchi; R_1, Q_1, R_2, Q_2 - gidrosilindrning bosimli va oqova bo'shliqlaridagi bosim va sarflar; F_1, F_2 - bosimli va oqova bo'shliqlarning foydali yuzalari; V_{01}, V_{02} - bosimli va oqova bo'shliqlarning boshlang'ich suyuqlik hajmlari; m_i - i -zvenoning massasi; j_i - og'irlik markazidan o'tuvchi o'qqa nisbatan i -zvenoning inersiya momenti; v_i - i -zvenoning og'irlik markazi tezligi; ω_i - i -zvenoning burchak tezligi; R_i, M_i - zvenolarga ta'sir etuvchi faol kuch va momentlar; φ_i - yo'naltiruvchi kuch P_i va tezlik v_i orasidagi burchak; l_i - i -zvenoning uzunligi.

Suyuqlikning quvurdagi harakatini tadqiq qilish uchun suyuqlik siqiluvchan va bir yoki bir necha qisqa uzunlikda jamlangan, deb qaraladigan model tanlangan (gidravlik tizim elementlarining deformatsiyalanuvchanligini hisobga oladigan parametrlari jamlangan tizim). Bu modelda, suyuqlikda erimagan havo pufakchalarini hisobga olish imkoniyati bor.

$$\rho \ell \frac{d^2 x}{dt^2} + 27,5 \frac{\ell \mu}{f} \frac{dx}{dt} + (0,443 \frac{k_\varepsilon \mu}{\sqrt{f}} + 0,5 \zeta \rho) \left(\frac{dx}{dt} \right)^2 \text{sign} \frac{dx}{dt} + p_{\text{БЫХ}} = p_{\text{BX}} \quad (8)$$

$$\frac{dp}{dt} = \left(\frac{E_{\text{ж}} \delta_{\text{T}} E_{\text{T}}}{E_{\text{T}} \delta_{\text{T}} + d_{\text{T}} E_{\text{ж}}} \right) \frac{(Q_{\text{BX}} - Q_{\text{БЫХ}})}{V_{\text{ж}}}, \quad (9)$$

bunda $\text{sign} \frac{dx}{dt} = \begin{cases} 1 & v > 0 \\ -1 & v < 0 \end{cases}$, r_{VX} , Q_{VX} —quvurga kiruvchi suyuqlik bosimi va oqimi;

$r_{\text{ВЫХ}}$, $Q_{\text{ВЫХ}}$ —quvurdan chiquvchi suyuqlik bosimi va oqimi; t — vaqt; ρ i Ye_{J} - suyuqlikning zichligi va hajmiy elastiklik moduli; d_{T} , δ_{T} , E_{T} — mos ravishda quvur diametri, devori qalinligi va materialining elastiklik moduli; k_ε - approksimatsiya koeffitsienti, gidravlik magistralning nisbiy ε g'adir-budurligiga bog'liq; ζ - mahalliy qarshilik koeffitsienti; f i l - quvurning yuzasi va uzunligi; V_{J} — quvurdagi suyuqlik hajmi; μ - suyuqlikning dinamik qovushqoqligi.

Oqimning gidrotaqsimlagich orqali o'tishi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_p = \eta_p f_p(y) \sqrt{2|p_{\text{H}} - p_{\text{BX}}| / \rho} \quad (10)$$

bunda r_{n} - nasos hosil qilgan bosim, $f_r(y)$ - o'tkazish kesimining yuzasi, η_r - oqim koeffitsienti.

Gidrotaqsimlagichning o'tkazish kesimi yuzasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$f_p(y) = \begin{cases} 0, & t < \tau \text{ бўлганда,} \\ \pi d_y^2 (t - \tau) / (4(t_k - t)), & \tau \leq t \leq t_k \text{ бўлганда,} \\ \pi d_y^2 / 4, & t > t_k \text{ бўлганда,} \end{cases}$$

bunda d_y - shartli o'tkazish diametri, τ - kechikish vaqti, t_k – o'tkazish kesimining to'liq ochilish vaqti.

Yuqoridagi (1)-(10) tenglamalar tizimi boshlang'ich va chegaraviy shartlar bilan birgalikda traktorning GRBsini dinamik hisoblash uchun matematik modelni tashkil qiladi. GRB ishi bilan bir qatorda, quyidagi tenglamalardan foydalanib, traktorning burilish jarayoni ham ko'rib chiqilgan. Bu masalalarni yechish uchun Paskal algoritmik tilida kompyuter dasturi ishlab chiqilgan (DGU 24056-sonli kompyuter dasturi).

$$m_T \frac{dV_y}{dt} = (k_{y1} \delta_1 \cos \alpha + k_{y2} \delta_2 - (R_1 f + M_T i_p / r_k) \sin \alpha) - m_T V_T \omega_T$$

$$m_T a b \frac{d\omega_T}{dt} = -k_{y1} \delta_1 a \cos \alpha + k_{y2} \delta_2 b + (R_2 f + M_T i_p / r_k) b \sin \alpha$$

$$x_u = \int (V_T \cos \gamma - V_y \sin \gamma) dt + c_1, \quad y_u = \int (V_T \sin \gamma + V_y \cos \gamma) dt + c_2, \quad \gamma = \int \omega_T dt + c_3$$

bunda m_t , V_t – traktor massasi va tezligi, V_y , ω_t – traktorning yonaki va burchak tezligi, δ_1 , δ_2 – traktor oldi va orqa o'qining yonaki siljish burchagi (uvod), k_{y1} , k_{y2} – yonaki siljish burchagiga qarshilik koeffitsientlari, R_1 , R_2 – o'qlardagi reaksiya

kuchlari, α – yo‘naltiruvchi g‘ildirakning burilish burchagi, f – yo‘l qarshilik koeffitsienti, M_t – bitta disk tomonidan ishlab chiqilgan tormoz momenti, i_p – g‘ildirak reduktorining uzatish soni, r_k – g‘ildirakning g‘ildirash radiusi, x_s, y_s, γ – traktor og‘irlik markazi va yo‘nalish burchagining koordinatalari.

GRB va GOTlarda o‘tish jarayonlari sodir bo‘lganligi sababli ular quyidagi parametrlar yordamida baholanadi: ishga tushish vaqti t_{sr} , o‘tish jarayoni vaqti t_{pp} , bosimni rostdash qiymati p_{max} .

Hisoblash natijasida olingan GRB parametrlarining o‘zgarishi va traktorning turli tezliklarda burilish tavsiflari 4-jadvalda keltirilgan.


4-jadval

Traktorning burilishi jarayonining hisob natijalari

Traktor-ning bazasi va koleyasi uzunligi	Traktor-ning harakat tezligi, m/s	Traktor-ning burilish radiusi, m	Burilish yo‘lakchasi kengligi, m	Burilish yo‘lakchasi uzunligi, m	Gidravlik yuritmadagi o‘tish jarayoni tavsiflari		
					t_{sr} , cek	t_{pp} , cek	r_{pr} , %
L/B, m	v_{mp}	R_{mp}	y_k	x_k			
3,029/3,0	0,3	4,35	10,06	8,44	5,2	6,9	16
2,221/2,6	0,3	3,07	9,0	7,66	3,5	4,1	17
3,029/3,0	0,4	5,35	12,0	10,5	5,2	6,9	16
2,221/2,6	0,4	4,3	9,8	7,65	3,5	4,1	17
3,029/3,0	0,5	8,03	15,06	13,27	5,2	6,9	16
2,221/2,6	0,5	5,94	12,25	10,72	3,5	4,1	17
3,029/3,0	0,6	12,24	18,06	16,1	5,2	6,9	16
2,221/2,6	0,6	7,16	14,73	11,74	3,5	4,1	17

Olingan natijalar tahlili, o‘rganilayotgan traktor past klirens holatida 0,3...0,6 m/s tezlikda 3,07...12,24 m burilish radiusiga ega ekanligini ko‘rsatdi. 0,3 va 0,4 m/s tezliklarda burilish radiuslari ishlab chiqilayotgan traktor uchun texnik shartlar talablariga mos keladi ($L_v=2,221$ va 3,029 m da eng kichik radius 4,7 va 5,5 m dan oshmasligi kerak), 0,5 va undan yuqori tezliklarda burilish radiuslari texnik topshiriq qiymatlaridan oshib ketadi.

Traktor tezligi 0,4 m/s bo‘lgandagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarining qiyosiy tahlili (3-rasm, 5-jadval) traktor burilish parametrlarining (burilish radiusi, burilish traektoriyasi uzunligi, burilish vaqti, burilish yo‘lakchasi kengligi va uzunligi, o‘tish jarayonining tavsiflari) chetlashishi umuman olganda 19% dan oshmasligini, bu esa ishlab chiqilgan modeldan GRB parametrlarini asoslashda va uning ishlashiga turli omillar ta‘sirini tahlil qilishda foydalanish imkonini beradi.



3-rasm. Traktorning burilishi jarayonida gidrosilindrdagi bosimning o'zgarishi.

5-jadval

Nazariy va eksperimental tadqiqot natijalarining solishtirma jadvali

	Traktor- ning harakat tezligi, m/s	Traktor- ning burilish radiusi, m	Traktorning burilish traektoriyasi uzunligi, m	Burilis h vaqti, sek	Burilish yo'lakchasi kengligi, m	Burilish yo'lakchasi uzunligi, m	Gidravlik yuritmadagi o'tish jarayoni tavsiflari		
	v_{mp}^{cp}	R_{mp}^{cp}	Z	t_p	y_k	x_k	$t_{sr},$ cek	$t_{pp},$ cek	$r_{pr},$ %
Nazar.	0,4	5,35	33,6	84,0	12,0	10,5	4,32	5,32	16,8
Eksper.	0,4	5,95	37,4	92,3	12,18	9,52	3,8	5,2	13,6
Chetlashish, %		10,08	10,15	2,3	1,48	10,29	12,0	2,2	19

GOTning dinamik tavsiflari ham xuddi shunday tarzda ko'rib chiqiladi.

Quyida yopiq vektorlar usuli asosida olingan sharnirli mexanizm bo'g'inlarining burchak, burchak tezliklari va burchak tezlanishlari o'zgarishining analitik bog'lanishlari keltirilgan.

$$\varphi_4 = \arccos\left(\frac{l_{31}}{l_4} \cos\varphi_{31}\right), \quad \omega_4 = \frac{l_{31}\omega_{31}}{l_4} \cos(\varphi_{31} - \varphi_4), \quad (11)$$

$$\varepsilon_4 = \frac{l_{31}}{l_4} \varepsilon_{31} \cos(\varphi_{31} - \varphi_4) - \frac{l_{31}}{l_4} \omega_{31}^2 \sin(\varphi_{31} - \varphi_4) - \frac{2\dot{l}_4}{l_4} \omega_4, \quad (12)$$

$$\varphi_5 = \varphi_4 - \arccos\left(\frac{l_6^2 - l_4^2 - l_5^2}{2l_4 \cdot l_5}\right), \quad \varphi_6 = \varphi_4 + \arccos\left(\frac{l_6^2 + l_4^2 - l_5^2}{2l_6 \cdot l_4}\right), \quad (13)$$

$$\omega_5 = \frac{-\omega_4 l_4 \sin(\varphi_6 - \varphi_4) - \dot{l}_4 \cos(\varphi_6 - \varphi_4)}{l_5 \sin(\varphi_6 - \varphi_5)}, \quad \omega_6 = \frac{-\omega_4 l_4 \sin(\varphi_5 - \varphi_4) - \dot{l}_4 \cos(\varphi_5 - \varphi_4)}{l_6 \sin(\varphi_6 - \varphi_5)}, \quad (14)$$

$$\begin{cases} \varepsilon_5 = \frac{(\omega_4^2 l_4 - \ddot{l}_4) \cos(\varphi_6 - \varphi_4) - (\varepsilon_4 l_4 + 2\dot{l}_4 \omega_4) \sin(\varphi_6 - \varphi_4) - \omega_5^2 l_5 \cos(\varphi_6 - \varphi_5) - \omega_6^2 l_6}{l_5 \sin(\varphi_6 - \varphi_5)}, \\ \varepsilon_6 = \frac{(\omega_4^2 l_4 - \ddot{l}_4) \cos(\varphi_5 - \varphi_4) - (\varepsilon_4 l_4 + 2\dot{l}_4 \omega_4) \sin(\varphi_5 - \varphi_4) - \omega_6^2 l_6 \cos(\varphi_6 - \varphi_5) + \omega_5^2 l_5}{l_6 \sin(\varphi_6 - \varphi_5)}, \end{cases} \quad (15)$$

